

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK QOBILIYATINI AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadriyatlar tushunchasining ham falsafiy, ham pedagogik ta'riflari, tasniflari va tarbiyadagi roli, ayniqsa milliy va umuminsoniy tamoyillar orqali o'rganiladi. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning qadriyatga asoslangan ongini rivojlantirish uchun boy madaniy meros, jumladan, xalq og'zaki ijodi va mutafakkirlarimizning adabiy asarlaridan foydalanish lozimligi ta'kidlanadi. Maqolada, shuningdek, o'qituvchilarda aksiologik ongni tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi namunalari, tarixiy maskanlar, oilaviy hamkorlik, ko'rik-tanlovlar o'tkazish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan, har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishda o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy va kasbiy fazilatlarini muhim ahamiyatga ega ekanligi aytilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik faoliyat, ta'lim qadriyatlari, aksiologik yondashuv, xalq og'zaki ijodi

Annotation: This article examines the philosophical and pedagogical definitions, classifications and role of the concept of values in education, especially through national and universal principles. It emphasizes the need to use the rich cultural heritage, including folk oral literature and the literary works of our thinkers, to develop the value-based consciousness of future primary school teachers. The article also provides practical recommendations on the use of examples of folk oral literature, historical sites, family cooperation, and competitions in the education of axiological consciousness in teachers, and it is noted that the spiritual, moral and professional qualities of teachers are of great importance in the formation of a comprehensively developed personality.

Keywords: pedagogical activity, educational values, axiological approach, folk oral literature

Mamlakatimiz xalqining boy intellektual merosi- umumbashariy qadriyatlar asosida kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish, ta'lim oluvchilarning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish borasida olib borilgan islohotlar ta'limni insonparvarlashtirish, barkamol avlodni ma'nan yetuk, axloqan pok va jismonan baquvvat etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirdi. Shu bilan birga, pedagogika fani oldida umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini har tomonlama rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish zaruriyati mavjud. Bugungi globallashtirish jarayonida o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalay oladigan mutaxassislarni yetishtirishni takomillashtirish inson kamolotining asosini tashkil etadi. Chunki bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining o'zi har tomonlama yetuk, qadriyatlarga sodiq, xatti-harakati, odobi, ayniqsa, insonlar bilan o'zaro munosabatlari, g'amxo'rliqi, hurmat ko'rsatishi, bilimi, xulq-atvori hamda namunali faoliyati boshqalarga o'rnak bo'lishi kerak. Aksiologiya atamasi qadriyat va qadriyatlar haqidagi ta'limotdan ancha keyin paydo bo'lgan. Ushbu tushuncha XIX asrning 2-yarmida nemis qadriyatshunos olimi E. Gartner hamda fransuz olimi P. Laplart tomonidan fanga kiritilgan. Qadriyat tushunchasi maxsus falsafiy lug'atda XIX asrning 60-yillarida paydo bo'lganligi ta'kidlab o'tilgan. Falsafiy lug'atning 5-jildida qadriyatga shunday ta'rif berilgan: "Qadriyat falsafiy va ijtimoiy tushuncha. U birinchidan, bir obyektning ijobiy va salbiy qimmatini, ikkinchidan, ijtimoiy ongning normativ belgilovchi-baholovchi jihati (subyektiv qadriyatlar yoki ong qadriyatlari)ni ifoda etadi". Qadriyatga ta'rif bergan pedagog olimi O. Musurmonova esa uni

220 inson tomonidan qadrlanadigan narsalar, ya'ni kishilarning talabi, xohishi, qiziqishi va maqsadi asosida o'zaro munosabat, o'zaro ta'sir (atrof-muhit bilan, insonlar bilan) natijasida dunyoga keladigan holat, ekanligini ta'kidlagan.

Falsafiy va ilmiy-pedagogik adabiyotlarda qadriyatlarni umumlashtirgan tarzda bir nechta guruhlariga bo'lishgan: ma'naviy qadriyatlar, moddiy qadriyatlar, ijtimoiy qadriyatlar, umummadaniy qadriyatlar va pedagogik adabiyotlarda esa pedagogik qadriyatlar ham alohida ko'rsatiladi. Pedagogik qadriyatlarni olimlar yosh avlodni tarbiyalashda inson va uning qadr-qimmatini, bilim olishi va bu borada pedagogik qarashlar, pedagogik faoliyatni belgilaydigan tushunchalar tizimidan iborat deb qaraydilar. (Kukushin V.S., Morozov A.V., Kodjaspirova G.M., Kodjaspirov A.Y.)

V.A.Slastyonin ta'limotida esa pedagogik aksiologiya asosida inson hayotining qadriyatlari, ta'lim va tarbiya, pedagogik faoliyat va yaxlit ta'limni tushunish va qaror toptirish masalalari yoritiladi. U aksiologiya (qadriyatlar falsafasi to'g'risidagi falsafiy ta'limot)ga ta'lim falsafasining asosi va hozirgi davr pedagogikasining metodologiyasi sifatida qaraydi. Pedagogik qadriyatlarni amalga oshirish, eng avvalo, ma'lum aksiologik yondashuvdan kutiladigan maqsad, g'oyaning qay darajada puxta va aniq bo'lishi, uning insoniyatga keltiradigan foydasi bo'lishi zarurligini taqozo etadi.

Boshlang'ich ta'lim sharoitida aksiologik yondashuv o'z mohiyatiga ko'ra voqelikni atroflicha o'rganish hamda chuqur idrok etishda muhim o'rin tutadi. Xususan, milliy merosimiz bo'lgan - xalq og'zaki ijodi, badiiy adabiyot, yozuvchi hamda olimlarimizning boy ijodiy merosi orqali pedagogik va psixologik ta'sir ko'rsatish, yosh avlodga ularni asrab-avaylash, qadr-qimmatini anglatish, sinchiklab o'rgatish, ta'limga va ishtirokchilariga qadriyat sifatida qaralsagina ta'limdagi aksiologik yondashuvdan kutilgan maqsadga erishish mumkin. O'rta Osiyoda eng qadimgi davrlardan oq ustozga alohida ehtirom ko'rsatishgan. Uni ota kabi ulug'lash lozimligi yosh avlodga tarbiya jarayonida singdirib borilgan. Masalan, muqaddas kitobimiz "Avesto"da tarbiyachilarning burch va majburiyatlariga ham qonuniy tus berilgan. Ularning kompetentlik darajasini baholash uchun "chechan", "uddaburon", "tanbal", "befarq", "mas'uliyatsiz" kabi tavsiflardan foydalanilib, "yaxshi" va "yomon" ustozlarga ajratilgan. Kitobda yaxshi ustoz yoshlarni haqiqat sari yetaklashi, ularga yo'l boshchilik qilishi, hayotni sevishtga o'rgatishi lozimligi belgilab berilgan.

Darhaqiqat, xalq og'zaki ijodiga tayanib, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik qobiliyatini rivojlantirish, ularda keng dunyoqarash va aksiologik ongni shakllantirish borasida quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

- xalq og'zaki ijodi namunalari orqali talabalarda aksiologik ongni shakllantirishga oid nazariy ma'lumotlar berib borish;
- xalq og'zaki ijodi vositasida o'quvchilarda aksiologik ongni shakllantirishda amaliy (tarixiy qadamjolar, muzeylar) ishlarni olib borish;
- xalq og'zaki ijodi vositasida o'quvchilarda aksiologik ongni shakllantirishda oilalar bilan hamkorlik ishlaridan to'liq foydalanish;
- xalq og'zaki ijodi namunalari asosida turli tanlov va musobaqalar tashkil etish.

Mamlakatimizda boshlang'ich ta'limni yanada takomillashtirish, ta'lim muassasalari faoliyatining sifati va samaradorligini oshirish, Vatanga sodiq, o'z mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega, qadriyatlarni ongli ravishda anglaydigan yoshlarni tarbiyalash kabi vazifalar bugungi kunning dolzarb masalasi bo'lib qolaveradi. Buning uchun bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning mezonlari va ko'rsatkichlarini aniqlashtirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimini rivojlantirishning tashkiliy tuzilmasi va mexanizmlarini takomillashtirish zarur, ta'limda uchraydigan axloqiy muammolarni hal etishda esa ajdodlarimizning ma'naviy merosidan foydalanish, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan o'rinli va samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq og'zaki ijodi vositalarining ta'lim jarayonida samarali qo'llanilishi talabalarning vatanparvarlik hissini shakllantirish, ularni milliy qadriyatlar bilan tarbiyalash va ma'naviy kamolotga erishish uchun muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilarning metodik faoliyati, xalq og'zaki ijodining turli janrlarini

o'quv jarayoniga integratsiyalash, talabalar bilan interaktiv ishlash orqali bu jarayon yanada samarali va natijali bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi". Toshkent-2006.
2. Boltayev A. Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirish (avtoreferat) Nukus-2025.
3. Mardonov Sh. Pedagogik aksiologiya, "Fan va texnologiyalar", Toshkent-2003.
4. Xodjayev B.X. Pedagogik aksiologiya. O'quv qo'llanma. "Fan va texnologiya", Toshkent-2011.
5. Xolov O.CH. Xalq og'zaki ijodi vositasida o'quvchilarda aksiologik ongni shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari (avtoreferat)